

HOZIRGI ZAMONAVIY SIYOSATSHUNOSLIKDA ELITIZMNING EVOLUTSION METODOLOGIK ASOSLARI

Iqboldinov Abdusamad Ilyosbek o‘g‘li

O‘zMu Ijtimoiy fanlar fakulteti

Siyosatshunoslik yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hozirgi zamonaviy siyosatshunoslikda Elitizmning evolutsion metodologik asoslarini turli xildagi qarashlar orqali olib berishga harakat qilingan. Bu maqolani yoritib berish jarayonida turli xildagi jahon adabiyotlaridan foydalanilgan bo‘lib, foydalanuvchilar uchun qiziqarli hamda foydali materialarni berish uchun harakat qilgan holda, mana shunday maqola vujudga keldi.

Kalit so‘zlar: Siyosatshunoslik, elita, elitizm, elitarizm, elitalogiya, metodologiya, siyosiy elita, evolutsiya, qarashlar, yondashuvlar, bosqichlar, institut, faoliyat, jarayon va boshqalar.

Abstract: In this article, an attempt was made to reveal the evolutionary methodological foundations of Elitism in contemporary political science through different views. In the process of elucidating this article, various types of world literature were used, and in an effort to provide interesting and useful materials for users, such an article was created.

Key words: Political science, elite, elitism, elitology, methodology, political elite, evolution, views, approaches, stages, institution, activity, process, etc.

Аннотация: В данной статье предпринята попытка через различные взгляды раскрыть эволюционные методологические основы элитизма в современной политической науке. В процессе освещения данной статьи использовались различные виды мировой литературы, и в целях предоставления пользователям интересных и полезных материалов была создана такая статья.

Ключевые слова: Политология, элита, элитизм, элитаризм, элитология, методология, политическая элита, эволюция, взгляды, подходы, этапы, институт, деятельность, процесс и более.

Kirish: Siyosatshunoslikda siyosiy elita siyosiy boshqaruvning funksiyasi va uni harakatlanishini tavsiflovchi institut sifatida qaraladi. Shu boyis siyosiy elita ijtimoiy hayotda guruh yoki qatlama vazifasini bajaradi. Siyosiy elita ilmiy talqinda insonlarning hokimiyatga bo‘lgan ta’sirini baholash yotadi. Ta’sir o‘zining ko’rsatkichiga va darajasiga ega. Bundan shuni anglash mumkinki- insonlarni siyosiy hokimiyatni anglash darajasi qanchalik taraqqiy etsa, siyosiy elitaga saralanish ham shunchalik o‘zgarib boradi.

Siyosiy elita imtiyozli guruh yoki guruhlar majmuasi bo‘lib, har qanday davlatda 3 daraja bilan o‘lchab bog’lanadi:

- Psixologik daraja;
- Mafkuraviy daraja;
- Siyosiy daraja

Elita taraqqiyotida Nikolo Makiavelli maktabi vakillari yuqoridagi sanalgan darajalarning 2-turiga xos bo'lgan qarashlarni oldinga suradi.

Siyosiy elitaning muhim hususiyatlari zamonaviy jamiyatda quyidagilar bilan belgilanadi:

- Elita vakillari uchun xos bo'lgan alohida hususiyat;
- Elita ommaga qanchalik javobgar;
- Elitani rekrutatsiyasi ya'ni u kimgardan vujudga keladi;
- Elita jamiyatga konstitutsiyaviy yoki destruktiv ta'sir ko'rsatadi.

Politologik adabiyotlarda "Siyosiy sinf", "hukumron sinf", "boshqaruvchi sinf" singari turli nomlarga ega siyosiy elitalar bugungi kunda ham Jamiyat taraqqiyoti uchun ulkan hissa qo'shuvchi ijtimoiy guruh hisoblanadi. Siyosiy yetakchilik ikki xil usulda, ya'ni nomenklatura yoki demokratik yo'li bilan shakllanadi. Siyosiy yetakchilikning ijtimoiy ahamiyati to'g'ridan-to'g'ri siyosiy madaniyat darajasi va ommaning faolligi bilan bog'liq. Faol siyosiy madaniyatning, barqaror demokratik an'analarning mavjudligi, davlat tomonidan nazorat qilinmaydigan fuqarolik jamiyatni va siyosiy muxolifatning borligi zaif yetakchilar uchun imkoniyatlarni keskin kamaytiradi. Turli xil o'zboshimchalik va hokimiyatni suiiste'mol qilishning oldini oladi, shu bilan birga, siyosatda individual qobiliyatlar hamda talantlarni namoyon qilishga keng yo'l ochib beradi.

Siyosiy yetakchilikning shakillanish tartibi:

- **Nomenklatura printsipi** (biror yuqori tashkilot xisobida turadigan va shu tashkilot tomonidan belgilanadigan, tayinlanadigan xodim) totalitar tizimlarda amal qiladi va bunda yetakchilikka tanlash jamoatchilik ishtirokisiz, hukimron, oz sonli odamlar guruxi orasida amalga oshiriladi.

- **Demokratik printsipi** liberal-demokratik tizimlarda amal qiladi. Ularda siyosiy yetakchi ochiq siyosiy kurash natijasida siyosat maydoniga kirib keladi, hokimiyat zinapoyalarida uning quyidan yuqoriga ko'tarilishini jamiyatning muayyan ijtimoiy guruhlari ommaviy tarzda qo'llab-quvvatlaydi.

«*Elita*» atamasi fransuzcha «elite» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u eng yaxshi, tanlangan degan ma'noni bildiradi. «Tanlangan bug'doy», «tanlangan poda» va x.k. deyiladi. Buni eng yaxshilagini, oliy navligini, tanlanganligini ko'rsatish uchun aytildi. Siyosiy leksikada ham avvaldan ushbu termin xuddi shunday ma'noni anglatgan. Avval jamiyatni muayyan tanlangan va shuning uchun ixtisoslashgan muayyan odamlar boshqarishi kerak bo'lgan deb o'yaganlar.

Siyosiy leksikonda «elita» atamasi avvallari xuddi shunday tusga ega edi. Jamiyatning eng yaxshi (zo'r), maxsus bu ishga atalgan, munosib kishilarning

boshqarishi to‘g‘ri deb hisoblanardi. Tarixan «elita» atamasi omma tepasida turgan va o‘zlarining maxsus hususiyatlariga ko‘ra uni, ya’ni ommani boshqara oladigan, jamiyat uchun juda qadrli hisoblanishi ijtimoiy guruhga nisbatan qo‘llanilgan. Platon qat’iyan demosning (xalqning) davlatni boshqarishiga qarshi bo‘lgan. Uning nazarida jamiyatni donolik fazilatiga ega bo‘lgan, aqliy jihatdan yaxshi rivojlangan faylasuflar boshqarishi lozim. Jamiyatning boshqa lazzat va shahvatlarga g‘ark bo‘lgan qismi dono faylasuflarga bo‘ysunishi lozim.

«**Siyosiy elita**» atamasi o‘zining zamonaviy talqinida, butun jamiyat ustidan real hokimiyatga ega bo‘lgan «ozchilik» ijtimoiy guruhi sifatida siyosatshunoslikda XX asrning boshlarida avstriyalik siyosatshunos R.Mixels va italiyalik siyosatshunoslari G. Moska va V.Paretolar tomonidan kiritiladi.

R.Mixels ***oligarxiyaning temir qonunini*** yaratdi. U quyidagidan iborat: hokimiyatning ozchilik tomonidan egallanishi jarayoni muqarrardir, har qanday tashkilot ko‘pchilikni boshqaradigan ozchilik tomonidan boshqarilishiga harakat qiladi. G.Moska bu qarashni rivojlantirgan holda, siyosiy elitani ***yopiq sinf***, «siyosiy sinf» deb ataydi.

V..Pareto siyosatshunoslik faniga **«elita» va «kontrelita»** tushunchalarini kiritdi. V..Paretoning fikricha, individlar bir-birlaridan jismoniy, axloqiy va intellektual (aqliy) hususiyatlari bilan ajralib turishadi. Shularning har birida yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan individlar guruhi elita nomini olishadi. Shunday qilib, jamiyat elitasi - bu o‘zlarining tug‘ma ruhiy (psixologik) hususiyatlari sababli, yuqori fazilatni yoki o‘zlarining faoliyat sohalarida yuqori darajadagi qobiliyatni ko‘rsata oladigan ma’lum bir kishilar guruhi. «Elita» atamasining asosiy g‘oyasi - ustunlik demakdir.

Paretoga binoan, elita **hukmron elitaga** - bevosita yoki bilvosita boshqarish ishlarida qatnashadigan va **hukmron bo‘lмаган elitaga** – kontrelitaga bo‘ysunadi. Kontrelita bu elitaga xos bo‘lgan psixologik hususiyatlarga ega, biroq u yoki bu jamiyatda maqomi va boshqa turli xil to‘sinqular sababli boshqaruv funksiyalarga kirishga ega bo‘lмаган kishilar guruhidir. Ba’zi bir holatlarga ko‘ra, elita va kontrelita vakillari o‘z o‘rinlari bilan almashishlari mumkin.

Amerikalik siyosatshunos R. Mils hukmron elitaning **ijtimoiy guruh sifatida maxsus**, qadriyatli va psixologik o‘xshashligini ko‘rsatadi. Milsga ko‘ra, siyosiy elita yagona ijtimoiy ildizlarga, aniq ifodalangan guruh ijodiga, harakat va birlashish uchun umumiyligi irodaga ega. Umumiy ijtimoiy ildiz, ta’lim - tarbiya, «hayot tarzi»dan kelib chiqqan holda manfaatlarning umumiyligi va shaxsiy birdamlikka tayangan yuqori jipslik buni ko‘rsatadi. Milsning fikricha, siyosiy elitaga kiradigan shaxslarning ma’naviy talablari, imkoniyatlarining majmui, ijtimoiy da’volarning darajasi va hatto psixologik hususiyatlari yuqori moslik bilan ajralib turadi. Bu esa, siyosiy elita nafaqat hokimiyatga ega bo‘lgan kishilar guruhini, balki ijtimoiy tanlash natijasida shakllangan

ijtimoiy guruh ekanligini bildiradi. Siyosiy elita o‘zi nimani –bildiradi? Unga kimlar kiradi? Uning tuzilishi qanday?

«Siyosiy elita» tushunchasini keng va tor ma’noda qo‘llash lozim. **Keng ma’noda** «siyosiy elita» tushunchasi «hukmron elita» tushunchasiga teng. Boshqaruv elitasi bu jamiyatning tashkiliy ozchiligi bo‘lib, ko‘pchilikdan farqli bo‘lgan lekin juda birdam ijtimoiy guruh hisoblanadi. U liderlik qobiliyatlarga ega bo‘lib, boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘rgan; u jamiyat institutlarida boshqaruv kursini egallaydi, hamda bevosita va bilvosita jamiyatda hokimiyat qarorlariga ta’sir ko‘rsata oladi.

Siyosiy elita **tor ma’noda** boshqaruvchi elitaning bir qismi bo‘lib, o‘zining hokimiyatni amalga oshirishga bevosita qatnashishi bilan undan farq qiladi.

Siyosiy elita o‘z qo‘lida davlat hokimiyatini jamlagan va jamiyat boshqaruvida yuqori lavozimlarni egallaydigan ijtimoiy guruhdir. Jamiyatning siyosiy elitasiga hokimiyat funksiyasi va vakolatlariga ega bo‘lgan yuqori rangdagi professional siyosatchilar kiradi. Yana siyosiy elitaga siyosiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda jamiyat rivojlanishining strategiyasini ishlab chiqishda qatnashadigan maxsus tayyorlangan oly darajadagi siyosiy xodimlarni kiritamiz, siyosiy elitaning o‘ziga xos asosiy tomonini ta’kidlash maqsadida, uni ba’zan «davlatlarning siyosiy rahbariyati», «siyosiy qarorlar qabul qilish markazi» deb aytishadi. Uning tarkibi yildan-yilga o‘zgaradi, ammo lavozimlar tuzilishi deyarli o‘zgarmaydi. Bu davlat boshliqlari, ijro etish, qonun chiqarish, sud hokimiyatlarining rahbariyatlari, oly diplomatik korpuslaridir. Siyosiy elita hokimiyat funksiyalarining hajmi asosida siyosiy elitaning quyidagi darajalariga bo‘lish mumkin: oly, o‘rta va quyi.

Oly darajadagi siyosiy elita mamlakat rahbari, Bosh vazir, Bosh vazir o‘rinbosarlari va lider vazirlar, parlament spikeri, deputatlar fraksiyalari rahbarlari kiradi. Bu, jamiyat uchun ancha muhim bo‘lgan siyosiy echimlarni qabul qiladigan, son jihatidan ancha cheklangan insonlar guruhi (100-200 kishi)

O‘rta darajadagi siyosiy elita ko‘plab sonli saylangan mansabdor shaxslardan shakllanadi: hokimlar (gubernatorlar), parlament deputatlari, siyosiy partiyalar va jamoat harakatlari hamda kasaba uyushmlari boshliqlari. Lekin, demokratik institutlar rivojlangan davlatlarda partiyalar va kasaba uyushmalar liderlari yuqori elita tarkibiga kirishlari mumkin.

Quyi darajadagi elitani mahalliy doirada faoliyat olib boruvchi siyosatchilar tashkil qiladi (rahbarlar va mahalliy boshqaruv organlari deputatlari, regional doiradagi partiya a’zolari).

Administrativ elita – bu boshqaruvning texnik-tashkiliy vositalarini o‘z qo‘lida monopollashtirgan, boshqarayotgan elitaning bir qismidir. Personal tarkibda administrativ elita – bu vazirliklarda, hukumatning turli boshqaruv organlari departamentlarida muhim o‘rnlarni egallovchi davlat ishchilarining (mansabdor

shaxslar) eng yuqori tabaqasi. Administrativ elita siyosiy elita tarkibiga kiradi, lekin, uni (boshqaruv apparati) tuzilishi jihatidan mustaqil guruhga ajratish mumkin.

Iqtisodiy elita – bu boshqaruv tizimida o‘z faoliyatini xususiy mulk asosida olib boruvchi, boshqarayotgan elitaning bir qismidir. Iqtisodiy elita tarkibiga o‘z qo‘llarida moddiy va moliyaviy resurslarni to‘plagan shaxslar kiradi: ulkan korporatsiyalar, banklar egalari va ularning menejerlari.

Harbiy va politsiya elitasi tarkibiga davlatning oliv harbiy rahbarlari, generalitet, ichki ishlar vazirligi, davlat xavfsizligi, maxsus xizmatlar va hk. boshliqlari kirishadi. Ba’zi davlatlarda harbiy elitaning bir qismi oliv tabaqa elita tarkibiga kirsa, boshqa qismi esa o‘rta yoki administrativ elita tarkibiga kiritilishi mumkin.

Elitalar nazariyasi siyosatshunoslik fanida yaqinda shakllangan. Uning shakllanishiga siyosiy jarayonlarni ko‘rib chiqishdagi sinfiy yondashuv to‘sinqinlik qilgan. Ushbu yondashuvning eng yorqin misoli marksizm edi. Marksizm nazariyasida muhim bir hukmron elitaning mavjudligi rad etilgan. Klassik marksizm nazariyasi bo‘yicha siyosiy hukmronlikni amalga oshirgan sinf bu iqtisodiy hukmronlikni amalga oshirayotgan sinf, boshqacha qilib aytganda, ishlab chiqarishni o‘z qo‘lida tutgan sinf tashkil etgan.

Siyosiy liderlik turlari juda ko‘p bo‘lib, ularni tahlil qilish ham ancha murakkablik tug‘diradi Ushbu vazifani siyosiy liderlikni kompleks tahlil qilish orqaligina amalga oshirish mumkin. U liderlikning 4 asosiy xususiyatlarni hisobga oladi: liderning xarakterli xususiyatlari, u bajarishi lozim bo‘lgan vazifalar, uning izdoshlari va ularning o‘zaro harakati tizimi, lider va o‘zaro munosabat mexanizmi. Lekin liderlikning universal ta’limotini yaratish mumkin emas. Sababi, bu voqelikning o‘zi namoyon bo‘lishiga, vazifalariga, tarixiy davr, siyosiy tizim xususiyatlariga ko‘ra xilma-xildir. Hozirgi zamon siyosatshunosligida siyosiy liderlar u yoki bu mezonlarga ko‘ra xilma-xil turlarga ajratiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Kamoliddin Mirzaahmedov – Ma’ruza matni
2. А.Ю.Другова, Н.П.Малетина, О.В.Новаковой - Элиты Стран Востока - Москва-2011
3. Г.К.Ашин, А.В.Понеделков, А.М.Старостин, С.А.Кислицын – ОСНОВЫ ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЭЛИТОЛОГИИ – Москва-1999
4. Arxiv.uz // <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/siyosatshunoslik/siyosiy-elita-va-siyosiy-yetakchilik/>
5. Arxiv.uz // <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/siyosatshunoslik/siyosiy-yetakchilik-tushunchasi-va-turlari/>
6. Hozir.org // <http://genderi.org/mavzu-siyosatshunoslik-fani-predmeti-maqsad-va-vazifalari.html?page=9>